

UMRBOQIY OHANGLAR

Mamayunusova Zarnigor

*O'zDk huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
Musiqashunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kompozitorlar ijodida estrada musiqasining o'rni va ijodiy faoliyatlari, xususan Ikrom Akbarovning "Gazli" asari batafsilroq yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Estrada, musiqa, Gazli, cholg'u, shakl, asar, qo'shiq.*

Yuksak ma'naviyat va barkamollik sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omil va vositalari qatorida musiqa ham alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'z tabiati bilan o'zgacha bir olam hisoblanadi. Mo'jizakor tovushlar, maftunkor kuylar, ajoyib tuyg'ular, g'aroyib hissiy kechinmalarning barchasi musiqaga xosdir.

Musiqa inson hayoti davomida unga doim hamrohdir. Musiqa sadolari ostida qilingan mehnat unumli, u bilan olingan dam maroqli bo'ladi. Musiqa va qo'shiq jo'shqin hissiyotlar va rang-barang hayot taassurotlarining kuchli tug'yoni bilan tug'iladi. U dillardan-tillarga orambaxsh harorat baxsh etadi. So'z va kuyning bunday g'aroyib ta'siri qalblarda yuksaklik, poklik va ezgulik hislarini uyg'otadi, ongi va tafakkurini o'sishiga ko'maklashadi, hayotini kengroq tushunishga yordam beradi. Bunday holatlar har bir ustoz, murabbiy qolaversa ota-onalar uchun katta tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish imkonini yaratib beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq orasida "estrada", "estrada konserti", "estrada san'ati" kabi atamalar iste'molga kirib kela boshladi. Bu Turkiston o'lkasining shaharlariga Rossiyadan gastrolga kelgan konsert guruhlarining chiqishlari bilan bog'liq edi.

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda tashkil etilgan "Ashula va raqs guruhi", "Mashshoqlar to'dasi", "Musiqiy etnografik ansambl"larining xalq ommasiga ko'rsatgan tomoshalarini "konsert", "estrada konserti" deb e'lon qilish asta-sekin odat tusiga kirdi. Shu davrdan boshlab musiqachilar ahli va xalq orasida "konsert", "estrada", "ansambl" kabi atamalar xalq orasida ommalasha bordi.

"Estrada san'ati" shakllanishidagi ilk jarayon, bu san'at yo'nalishini ifoda etuvchi va amaliyotda keng qo'llanila boshlagan atamalar bilan bog'liqligini e'tirof etish lozim. Jumladan:

"Estrada" (fransuzcha ESTRADA, lotincha STRATUM) atamasi aslida taxtadan pol qurish yoki sahna qurish ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga konsertlar o'tkazish uchun maxsus qurilgan sahnani bildiradi.

"Estrada konserti" – bir xil yoki turli xil san'at namunalari yig'indisidan tuzilgan konsert tomoshasi.

“Estrada musiqasi” – turli mavzu va mazmunda bastalangan yengil, rang-barang, xilma-xil qo‘shiq, cholg‘u musiqasi, musiqa san‘atining bir turi.¹¹

O‘zbekistonda zamonaviy milliy estrada san‘atini tashkil etilishi va rivojiga Tamaraxonim o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan.

XX asrning 50-60-yillarida respublikamizda Estrada jamolari ishtirokida tomoshabinlar uchun konsert bera boshladi.

1954-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibida “Estrada kvarteti” ansamblini tuzdi. 1954-yili “O‘zbek davlat estradasi” tashkil etildi va barcha jamoalar uning tarkibiga o‘tkazildi. Asosiy maqsad estrada musiqani rivojlantirish edi.

O‘zbek bastakorlari va kompozitorlari musiqa ijodiyotida, ayniqsa estrada janriga bo‘lgan e‘tibor oshadi va xalq musiqasi ohamglariga asoslangan va zamonaviy qo‘shiq va kuylar yaratiladi. Ushbu sohada bastakorlardan M.Mirzayev, E.Salixov, Sh.Ramazanov, Yan Frenkel, A.Nesterov, A.Malaxov, X.Izomov, S.Yudakov, M.Burxonov, M.Ashrafiy, Y.Jivayev kabi kompozitorlar o‘z asarlarini yaratdilar.

“Ey mehribonim”, “Namanganning olmasi”, “Qahramon qizlar”, “Toshkent haqida qo‘shiq”, “Toshkenti osmoni”, “Muhabbat”, “Maftun bo‘ldim” kabi qo‘shiqlar, orkestr ijrosi uchun “O‘zbekcha syuita”, “Bahor”, “O‘yinqaroq qiz”, “Lirik vals” kabi asarlar shular jumlasidandir.

1960-yillarda Moskva teleradio qo‘mitasi qoshida “Simfonik jaz orkestri”ning tuzulishi, Estrada san‘atini rivojlanishi jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi. 1964-yilda kompozitor Enmark Salixov rahbarligida “Estrada orkestri tashkil etildi”. Kelgusi yildan boshlab torli va ayrim o‘zbek xalq musiqasi cholg‘ulari ham kiritildi va “Estrada-simfonil orkestri” deb ataldi.

Estrada-simfonik orkestri ijodiy yo‘nalishi va janrlar qamrovi har tomonlama o‘zbek musiqa sa‘atining an‘anaviylik va zamonaviylik jihatlar bilan boyita bordi. Yillar davomida orkestrning repertuari yangi, orginal qo‘shiq va cholg‘u asarlar bilan boyitildi. I.Akbarov, D.Zokirov, S.Jalil, E.Qalandarov, D.Saydaminovlar ijodida milliy musiqa an‘analariga asoslangan va zamon ruhi bilan sug‘orilgan Estrada yo‘nalishidagi bir qator qo‘shiqlar ijod etildi.

Qo‘shiqlar qatorida Estrada yo‘nalishida kompozitorlar tomonidan orkestr uchun maxsus asarlar yaratilishi ijodiyotda keng ommalashdi. A.Malaxovning o‘zbek xalq kuylari asosida yaratilgan “Doira yulduzi” va “Shodlik” pyesalari, I.Akbarovning “Ketma nigor” qo‘shig‘i asosida yaratilgan “Fantaziya”si; A.Goncherenkovning “Sharq syuitasi”, E.Salixovning “Final-pyesa”si shular jumlasidandir.

O‘zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kompozitor Ilrom Akbarovsiz XX asrning ikkinchi yarmidan respublikamiz professional musiqa san‘atining rivojlanishi jarayonini tasavvur etish qiyin. U simfonik asarlar, cantata, oratoriya, opera, balet, musiqali drama va komediya, xor hamda Estrada qo‘shiqlari bilan o‘zbek musiqasi rivojiga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

¹¹ A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova “O‘zbek musiqa tarixi” T 2018 147-148-bet

Ikrom Ilhomovich Akbarov 1921-yil 1-martda Toshkentdagi hunarmand oilada tug'ildi. Bolalidan musiqaga qiziqishini sezgan amakisi Ilyos Akbarov tavsiyasi bilan Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida fortepiona bo'yicha ta'lim oladi. Ota onasining xohishi bilan Toshkent Pedagogika bilim yurtida ham o'qiydi 1939-yili Toshkent Davlat Konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kiradi.

Ikrom Akbarov konservatoriyani muvaffaqiyatli tamomlagandan keyin Hamza nomidagi Toshkent bilim yurtida musiqa nazariyasidan dars bera boshlaydi.

Kompozitor Leningrand konservatoriyasida o'qishini davom ettird va 1954-yil o'z yurtiga qaytib faqat ijod bilan shug'ullangan.

1954-yil H.H.Niyoziyga bag'ishlab yaratgan "Shoir xotirasi" simfonik poemasi kompozitorga shuhrat keltirishi bilan uning ijodiy faoliyatida burulish yasadi. U mazkur asaridan so'ng, simfonik va vokal-simfonik janrlarda badiiy barkamol asarlar yaratdi.

I.Akbarov 1959-yili "Orzu" nomli ilk baletini, 1964-yili "Nigor", 1968-yili "Navro'z" baletlari bilan raqs san'atining rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

Ikrom Akbarov o'zining dilbar qo'shiqlari bilan xalqimiz orasida mashhur bo'ldi.

Ayniqsa, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov ijro etgan "Ra'no", "Gazli", "Mahbubga", "Ketma,Nigor", "Qaydasan", "Yor kel", kabi qo'shiqlari bilan elga tanildi.

Kompozitor Ikrom Akbarovga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoni berilgan. Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1999-yili "El-yurt xurmati" ordeni bilan taqdirlangan.

Ikrom Ilhomovich Akbarovning "Gazli" asari

Ikrom Akbarovning ushbu asari ba'zi adabiyotlarda "Gazli ko'hliklari" nomi bilan atalgan. Lekin amaliyotda "Gazli" deb ham yuritiladi.

Turob To'la she'ri Ikrom Akbarov musiqasi "Gazli" qo'shig'i

Bargday qo'nadi oqshom

Buncha ham taranmasang,

Saxro kipriklariga

Davra qoldi intizor.

Navbat beradi orom

Qo'ngan kipriningga chang

Gazli ko'hliklariga.

Shuncha berdimi ozor?

Cho'lni cho'lga ulagan

Payvandi qiz, kel dilband!

Endi qo'shiq tilagan

Yuraklarni et payvand.

I.Akbarovning "Gazli" asari oddiy 2-qismli shaklda yozilgan. Asarning tuzilishi quyidagicha a+b miron tonalligida yozilgan. Muqaddima kichik bo'lishiga qaramasdan 2 xil o'lchovda keladi, ya'ni 4/4, 6/4, 4/4. Asar 6 taktli kirish qismdan iborat bo'lib T va S ta funksiyalarida ifodalangan. Cholg'u yo'li xonandaga yordam beruvchi vazifani bajaradi va avj qismida unison tovushlar bilan ijro etiladi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida "Botir Zokirov repertuaridagi yangicha uslubda sayqallangan (aranjirovka qilingan) qo'shiqlarni eng yaxshi ijrosi" ko'rik-tanlovi

o'tkazildi va bu tanlovda aranjirovka qilish uchun "Gazli" qo'shig'i tanlab olindi. Mazkur ko'rik-tanlovning asosiy maqsadi Milliy estradamizni yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, milliy estrada yo'nalishida zamonaviy ijro namunalarining "Oltin fondi"ni yaratish, xalqimiz, xususan yosh avlod ongida milliy estrada orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirishdan iborat. Ko'rik tanlovda Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutitining 12 nafar "Estrada xonandaligi" yo'nalishi talabalari ishtrok etilar. Ko'rik - tanlov ishtrokchilarini Zokirovlar sulolasining vakili Nargiza Zakirova raisligida taqdirlandi. Hay'at a'zolari tomonidan qo'yilgan ball natijalariga ko'ra 3-bosqich "Estrada xonandaligi" yo'nalishi talabasi Qayumova Jasminaning ijrosi eng yaxshi ijro sifatida topildi va "Oltin fond"da saqlash uchun guvohnoma hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqa tarixi" Toshkent-2018
2. N.Yuldasheva, N.Raxmatova "O'zbek musiqa adabiyoti"
3. Ikrom Akbarov "Ra'no" G'afur G'ulom Toshkent.